

тәбиятты қорғау, оның ажыралмас бир бөлеги болған кийиклер падасын асырап-абайлау кереклиги хаққын-дағы ойларға шарлайды.

Қарақалпақ гүрриңшилигинде хроникалық сюжет мемуарлық, автобиографиялық хәдийселерди сүүретлеуге қурылған Г.Есемуратованың «Бахытлы бола алар ма екенмен?!», «Сол Таня қайда екен?», А.Халмуратовтың «Хәсен», Ө.Ембергеновтың «Бир түйир дуз» [3:60] шығармаларында өнімлі ислетилген. «Бир түйир дуз» гүрриңинде сюжетке еки хәдийсе негиз етип алынған. Бириншиси әскерий миннетин өтеп, елге аман-есен қайтып киятырған жигитке байланыс болса, оның екіншиси шофёр жигит пенен байланыс. Екеуи де бир-бирине басынан өткенлерин әңгиме етип айтып береді. Еки персонаждың сәубети формасында жазылған бул гүрриң бираз тәсирли шыққан. Жазыушы еки жигиттің әңгимеси арқалы баянланған ўақыяларды бир түйир дуз деталы арқалы бирлестиріп, улыўма туўылған жер, киндик қаны тамған топырақ, оны кәстерлеу, хүрмет етиў, дуз ишкен босағанды кәдир тугыў идеяларын шебер хәм көркем түрде сүүретлеген. «...Аўылда урыстың зардабын көрген жекке баслы ана Гүлбазар ким армияға кетсе, соған бир түйир дуз түйип берип, «илайым, аман-есен келгейсең, балам!» деп ақ пәтия берип жибереді екен. Аўылдағы Қартбай деген жигит армияға кетеринде бул Гүлбазар апаның ақ пәтиясын алмай, бир түйир дузын дуз қабаққа салып жибериپ, келеке қылған...

«Адамлар алды тарқап болғанда Гүлбазар апа кирип келди. Төрге шыққан жоқ. Есик бетте отырды.

–Қартбай балам, аман барып, саў кел. Мә, мынаны муқиятлап, белгили бир жериңе салып қой. Ол камзолдың қойын қалтасынан алақандай ақ сүпке түйилген бир түйир затты шығарды.

–Хаў, бул не, Гүлбазар апа?–деп Қартбай қолына алып, түймедей түйиншикти шешти. Ишиндеги затты алақаныны салып турып:

–Не екен десем, дуз екен ғой. Пай, Гүлбазар апа-ай, баладайсыз-аў. Дуз деген үйде де тур ғой, бир қабақ

толып. Неге кереги бар маған буның?–деп түргелип есик беттеги керегеге илиўли турған дуз қабаққа таслап жиберди. Гүлбазар апаның түри бирден аппақ болып кетти. Шаншыў тийгендей бүрисип, сам-саз болып, ернин тиследі. Дәстурханға қолын созып, наннан аўыз тийди де шығып кетти.» [3:89].

Гүрриңде ананың аппақ кеўли, жақсы тилеги, ақ пәтиясы, ықласы жақсы сүүретленген. Халық даналығында «Дузын ишип, дузлығына түпирме!» деген гәп бар. «Дуз тартып, аман-есен келгейсең!» деген ең жақсы тилек бар. Гүрриңде жазыушы усындай нәрселерге майда-шүйде деп қарамастан, оларға үлкен ықлас, адамгершилик хәм хүрмет пенен қараў керек, деген идеяны алға сүреді. Өйткени, бир түйир дуз, бир қысым топырақ түсиниклерлері халқымыздың неше әсирлерден киятырған инанымлары менен байланыс болып, оларды шығармада шеберлик пенен пайдаланыў персонажлардың өзине тән характерин жасаўға хызмет етеді. Ыақыялар «Бир түйир дуз»да гүрриңши тилинен айтып берилген. Ондағы айырым драматизмге толы көринислер, персонажлардың ишки сезимлері лирикалық шегинис, диалоглар арқалы шебер сүүретленгенин көреміз. Автор бир қысым топырақ, бир түйир дуз деталарын қолланыў арқалы туўған жеринди, елиңди, Ыатаныңды, ақ сүт берген ананды ұмытпа, – деген идеяны алға сүреді.

Жуўмақлап айтқанда, хәзирги қарақалпақ гүрриңи баянлаў поэтикасында хроникалық сюжет белгили орын ийелейди. Сюжеттің бул типі гүрриң жанры көлеминин бир қанша үлкейиўине, усы арқалы ўақыя хәм хәдийселердин, тәбият көринислеринин, инсанның, хәттеки, хайўанлардың да қыймыл-қозғалысларының деталластырылып берилиўине имканият жаратады. Бул, өз гезегинде, көркем образлардың толық хәм тәсирли формада жаратылыўына хызмет етеді. Демек, хәзирги гүрриң жанры поэтикасын усы бағдарда еле де тереңрек изертлеў бир қанша қунлы илимий-теориялық жуўмақлар ислеўге тийкар болады деп ойлаймыз.

#### Әдебиятлар

1. Атажанов Ә. Машкала. Повесть хәм гүрриңлер. –Нөкис: «Қарақалпақстан», 1988.
2. Досмухаммедов Х. Хәзирги ўзбек хикоячилигида бадий тафаккурнинг яңиланиши. (80-йилларнинг иккинчи ярми ва 90-йилларнинг аввалидаги хикоялар мисолида). –Тошкент: 1995. Номзодлик диссертацияси.
3. Ембергенов Ө. Наўрыздың ақша қары. Повестьлер хәм гүрриңлер. –Нөкис: «Қарақалпақстан», 1990.
4. Куронов Д., Мамажанов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. –Тошкент: «Академнашр», 2013.

#### РЕЗЮМЕ

Мақолада хәзирги қарақалпақ хикоячилиги поэтикасында хроник сюжетнинг аҳамияти тадқиқ этилген. Муаллиф айрым қарақалпақ ёзувчиларининг хикояларини анализ эта ўтирип аҳамиятли илмий-назарий хулосалар чикарган.

#### РЕЗЮМЕ

Статья посвящается исследованию хроникального сюжета в поэтике современного каракалпакского рассказа. Автор анализирует некоторые рассказы каракалпакских писателей, и делает важные научно-теоретические выводы.

#### SUMMARY

The article is devoted to the study of the chronical plot in the poetics of modern Karakalpak story. The author comes to the important scientific-theoretical conclusions by analyzing some of the stories of Karakalpak writers.

### QODIRIYSHUNOSLIK TARIXIGA BIR NAZAR

**L.D.Reimboyeva – magistrant**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

**Tayanch soʻzlar:** roman, adabiyot, povest, siyosat, mafkura, tarjima, sinfiy pozitsiya, monografiya, maqolalar turkumi, adabiyotshunoslik, ilmiy tadqiqot.

**Ключевые слова:** роман, литература, повесть, политика, идеология, перевод, классовая позиция, монография, сборник статей, литературоведение, научные исследования.

**Key words:** novel, literature, narrative, politics, ideology, translation, class position, monograph, collection series of articles, literary criticism, scientific research.

Adabiyotda shunday sanʼatkorlar boʻladiki, ular nafaqat oddiy kitobxonlar, balki, adabiyot ilmi ahli, olimlar qalbidan ham chuqur joy egallaydi. Oʻlmas asarlarining sehri ularni oʻziga tortib ilmiy tadqiqotlar yuritishga undab turadi. XX asr oʻzbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri, oʻzbek romanchiligining poydevorini qoʻygan Abdulla Qodiriy xuddi mana shunday, ham oʻquvchilar ommasining, ham adabiyotshunos tanqidchilarning eʼtibori va mehrini qozongan soʻz sanʼatkorlaridan biridir.

A.Qodiriyning hikoya va qissalari, romanlari bilan oʻzbek adabiyotida oʻziga xos adabiy maktab yaratgan adib. Yozuvchining oʻtgan asrning 20-yillarida yaratgan har bir asari, eʼlon qilingan ijod namunalari, nashr qildirgan kitoblari adabiy jarayondagi kashfiyot darajasida qabul qilindi, muxlislar tomonida qiziqish bilan oʻqildi. Ayniqsa, muallifning satirik hikoyalari, xususan, “Oʻtkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlarining paydo boʻlishi oʻzbek adabiyotini, aytaylik, nasrini bir pagʻona yuksaklikka

ko'tardi desak, mubolag'a bo'lmasa kerak. Yozuvchi romanlari nainki o'zbek adabiyoti balki Markaziy Osiyo adabiyotlari uchun ham katta yangilik, ochilmagan qo'riq bo'ldi. Hammaning diqqatini o'ziga tortdi, qiziqish bilan o'qildi, targ'ibot qilindi. Lekin afsuski, o'sha davrning adolatsiz siyosati, hukumon mafkurasi A.Qodiriy ijodiga, jumladan romanlariga nisbatan nohaq siyosat olib bordi, ularni noholis baholdi. Asarning muallifini hukumon mafkuraga itoat etmaganlikda aybladi javob bermaydi deb xulosa chiqardi.

Sho'rolar tuzumining bu siyosati va mafkurasi ta'sirida bo'lgan bir guruh adabiyotshunos tanqidchilar A.Qodiriy ijodiga, xususan, "O'tkan kunlar" romanini baholashda, deyarli bir xil pozitsiyada turdilar, ya'ni asarni vulgar satsiologik jihatdan talqin qilishga harakat qilishdi. Bu tanqidchilar romanda yozuvchining badiiy mahoratiga emas, balki, muallifning ijtimoiy kelib chiqishiga, sinfiy pozitsiyasiga qarab baholashga urindilar. Romanning bosh qahramonlarini yozuvchi shaxsiyati bilan to'g'ridan-to'g'ri baholash, ularning protatipi tarzida talqin qilish va shu negizda asarning ijtimoiy ahamiyati toraytirib qo'yish tendensiyasi hukm surildi. Bunday qarashlar S.Xusayn va O.Sharaffiddinov tadqiqotlarida ko'proq ko'zga tashlandi. Jumladan, S.Xusaynning 1931-yili Bokuda nashr qilingan "O'tkan kunlar" nomli kitobida ushbu konsepsiya ilgari surilgan. Jumladan, kitobdagi "tarixchi ham xudojnik", "Qarama-qarshi solishtirish", "Jurji Zaydon – Abdulla Qodiriy", "Roman va haqiqat", "Qodiriy yashagan davr va roman", "Adabiy priyomning ijtimoiy ahamiyati" kabi boblarida muallif romanni shu nuqtai nazardan ya'ni, siyosati, mafkura va roman munosabatlari aspektida tahlil qiladi va ko'proq tanqid qilish yo'lidan boradi. Abdulla Qodiriy mayda burjuaziya yozuvchisi deb ta'riflagan ham Sotti Xusayn edi. Yozuvchining sinfiy pozitsiyasini belgilashdagi bu noto'g'ri yondashuv Abdulla Qodiriy taqdirida mudhish holatlar bilan yakunlanganligi ko'pchilikka ma'lum.

O'tgan asrning 30-yillarida A.Qodiriy ijodini tanqid etgan adabiyotshunoslar haqida gapirganda Miyon Buzrukning "Mehrobdan chayon" romani haqidagi maqolalar turkumini ham tilga olib o'tishni ma'qul deb bilamiz. Uning "Mehrobdan chayon. Mavzusi, sinfiy tusi va tuzilishi jihatidan tekshirishlar" nomli maqolasi ham diqqatni tortadi. Maqoladagi "Pomanchilikida tarjima", "o'zbek adabiyotida ruman", "Romanning xulosasi", "Tuzuk jihatlar", "Kamchiliklari", "Tuzilish xatolari" va hokazo degan nomdagi jajji maqolachalarda romanning yutuq va kamchiliklari tahlil qilingan. Ko'proq romanning kamchiliklarini ko'rsatish muallifning asosiy maqsadlaridan biri bo'lgani ko'rinib turibdi [1:13-26].

Bu davrda atoqli yozuvchi Oybek ham A.Qodiriy ijodi bilan shug'ullangan, maqolalar yozgan. 1936 yilda muallif o'zining "Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li" degan kitobini nashr qildirdi. Birinchidan, monografiya o'zbek adabiyotshunosligida Abdulla Qodiriy ijodiy portretini yaratishga qaratilgan dastlabki tadqiqot. Chunki bu asarida Oybek A.Qodiriy ijodining barcha qirralarini qamrab olishga harakat qilgan, kitobdan muallifning hikoyalardan tortib romanlarigacha barchasi tahlilga tortilgan. Ikkinchidan muallif shu kitob bahonasida o'zbek adabiyoti, aytaylik romanchiligining bir necha nazariy masalalarni hal qilishga harakat qilgan. Masalan, Oybek tarixiy roman janri qanday bo'lishi kerak, yoki tipik obraz yaratish tamoyillari nimalarga asoslanishi zarur, yozuvchi dunyoqarashi va badiiy ijod kabi nazariy masalalarni A.Qodiriy ijodi, jumladan, romanlari misolida ilmiy asoslashga harakat qilgan kitobning ahamiyatli jihatlaridan biridir.

Xullas, o'tgan asrning 20-30-yillarida Abdulla Qodiriy ijodi, xususan, romanlari to'g'risida ziddiyatli fikrlar aytilgan, ijodiga yondashuv bir tomanlama qarashlar bo'lgan bo'lsa-da, yozuvchi ijodiga qiziqishning kattaligi va shu xildagi tadqiqotlarning yaratilgan ijobiy hodisa edi desak

xato bo'lmas. Ikkinchi jahon urushi yillarida Abdulla Qodiriy ijodi yuzasidan biror jiddiy ilmiy ish yoki kitob yozilganligi haqida ma'lumotga ega emasmiz. Buning sabablari, bizningcha, ma'lum. Yozuvchi ijodi tahqirlanib, qoralandi keyin qatag'onga uchradi. Ijodini o'rganish to'xtatib qo'yildi. O'tgan asrning 60-yillarida Abdulla Qodiriy ijodiga nisbatan iliq munosabat paydo bo'la boshladi. Asarlari nashr qilindi. "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlari, "Obid ketmon" qissasi alohida-alohida chop etildi. Kichik asarlari to'plam shaklida bosilib chiqdi. Yozuvchi ijodini o'rganishga sekin asta kirishildi. Qodiriyshunos olimlar avlodi shakllana boshladi. M.Qo'shjonov, A.Aliyev, I.Mirziyoyev kabi adabiyotshunoslarning Abdulla Qodiriy ijodiga bag'ishlangan maqolalari, kitoblari matbuot yuzini ko'ra boshladi. M.Qo'shjonovning "Qodiriyning tasvirlash san'ati" /1966/, A.Aliyevning "Abdulla Qodiriy" /1967/, S.Mirvaliyevning "O'zbek romani" kitoblari o'sha davr qodiriyshunosligining salmoqli yutuqlari edi desak mubolag'a bo'lmas. I. Mirzaevning "Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyutsiyasi" va "Abdulla Qodiriy" degan risolalari ham yozuvchi ijodini har xil aspektlarda o'rganishning yaxshi namunalari edi. Bulardan boshqada, I.Sulton, O.Sharaffiddinov, U.Normatov, A.Rasulov, N.Xudoyberganov, B.Nazarov va boshqa yetuk adabiyotshunos tanqidchilarning ham Abdulla Qodiriy ijodini o'rganishga bag'ishlangan, turli mavzudagi maqolalari muntazam bosila boshlagan. Garchi bu davr sho'rolar tuzumi va mafkurasi hukumonlik qilib turgan bo'lsa-da, olimlarimiz Abdulla Qodiriy ijodini o'rganish jarayonlarini to'xtatmadilar. O'tgan asrning 70-80 yillarida ham bu jarayon keng quloq yozib rivojlanmagan bo'lsada, e'tiborga sazovor ilmiy ishlar yaratildi, kitoblar bosilib chiqdi.

Tom ma'nodagi o'zbek qodiriyshunosligi mustaqillik yillarida har tomonlama rivojlandi, yuksaldi, fundamental xarakterdagi ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi, yangi-yangi kitoblar chop etildi. Qodiriyshunoslik tarixi haqida so'z yuritir ekanmiz yozuvchi ijodining chet ellarda, shu jumladan qardosh adabiyotlarda o'rganilishi xususida ham to'xtalib o'tsak foydadan holi bo'lmasa kerak. Chunki adibning o'lmas asarlari, xususan, romanlari chet ellarda ham mashhur, bir qator xorijiy tillarga tarjima qilinganligi Abdulla Qodiriyning Yevropa mamlakatlarida ham tanilganligi va sevib o'qilganligidan darak beradi. Yozuvchi romanlari Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida ham anchadan beri ma'lum. "O'tkan kunlar" romanining qozoq, turkman, tojik, qizg'iz, ozarboyjon, va boshqa turkiy tillarga tarjima qilingani yozuvchiga ancha shuhrat keltirdi. Bulardan tashqari, A.Qodiriy romanlari ba'zi qardosh adabiyotlarda roman janrining tug'ilishiga sabab bo'lganligini qayd etish ham maroqli faktir. Bu romanning paydo bo'lishi haqida mashhur qozoq yozuvchisi Muxtor Avezov o'z vaqtida shunday deb yozgani bejiz emas edi: "Abdulla Qodiriy/ Julqunboy/yuksak romanlar yaratdi. Uning romanlari 20-yillarda go'yo tekis sahroda to'satdan Pomir tog'lari vujudga kelganday bo'ldi..." degan edi. Bu fikrdan shunday xulosaga kelish mumkinki, A.Qodiriy romanlarining yaratilishi qozoq adiblarining diqqatini o'ziga jalb qilgan va romanlar ijod qilishida o'zbek yozuvchisi tajribasi o'ziga xos adabiy maktab vazifasini o'tagan.

Adabiyotshunoslar turkman adabiyotidagi birinchi roman janrining paydo bo'lishida Abdulla Qodiriy romanlari muhim manbalardan biri sifatida e'tirof etilgan. Bu masalada taniqli turkman yozuvchisi Xider Deryayev quyidagi fikrlari e'tirofga sazovordir. Yozuvchi o'tgan asrning 30-yillarida Toshkentda, O'rta Osiyo davlat universitetida tahsil olgan. O'sha yillari u A.Qodiriy romanlarini o'qish imkoniga ega bo'ldi. Keyinchalik adib romanlaridan olgan taassurotlari haqida shunday eslaydi: "Menda o'zbek romanchiligiga qiziqish universitetda o'qib yurgan kezlardan boshlangan. O'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon"

romanlari menda bir umrga unitilmas ta'sir qoldirdi va ilhom bag'ishladi. Shu ilhom va ta'sir natijasida menda bir fikr tug'ildi. Turkman xalqining ham shunday o'tmishi borku, men ham shu o'tmishdan bir roman yozsam bo'lmaydimi? Shundan keyin menda Turkman xalqining o'tmishi haqida roman yozish istagi kuchaydi".

Demak, X.Deryayev ilk bora roman janriga qo'l urishda A.Qodiriy tajribasiga suyanagan, "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlarining tajribasi turkman adabiyotida birinchilardan bo'lib roman yozishda juda qo'l keldi. Va yozuvchi o'tgan asrning o'ttizinchi yillarining ikkinchi yarmida "Qismat" degan roman yaratadi. Bu asar turkman adabiyotida yirik realistik prozaning roman janrining ilk namunasi sifatida hozirga qadar e'tirof etiladi. Mashhur turkman yozuvchilari B.Kerboboyev, N.Sarixonov kabilar o'zlarining ijodiy faoliyatlarida Abdulla Qodiriy tajribalariga tayanganliklarini mamnuniyat bilan tilga oladilar. Bunday misollarni boshqa qardosh adabiyotlarda ham keltirilishi mumkin.

A.Qodiriy ijodi bilan dunyo olimlar ham qiziqib kelmoqda. Yozuvchi ijodi to'g'risida maqolalar e'lon qilingan. Filologiya fanlari doktori B.Karimning "Abdulla Qodiriy va

germenevtik tafakkur" nomli kitobining "Dunyo olimlari nigohida" bo'limida yozuvchi ijodining chet ellarda o'rganilishi masalalariga maxsus to'xtagan. Olimning yozishicha, B. Xayitning "Turkiston yangi adabiyotida ikki siymo. Qodiriy va Cho'lpon", E.Olvortning "O'zbek adabiy siyosati", X.Muftining "O'rta Osiyo musulmonlari. O'zlikning ifodalanishi va o'zgarishlar" nomli maqola va risolalarida Abdulla Qodiriy ijodi, yozuvchining romanlari tahlil qilinadi. A.Qodiriy ijodiga turli aspektlarda yondashgan bu xorijlik olimlarning tadqiqotlari o'zbek qodiriyshunosligining bir tarmog'i bo'lib ular Abdulla Qodiriy ijodini targ'ib qilishgan, ular uni jahon ko'lamida ommalashtirishda alohida ahamiyatga ega tadqiqotlardir. Bu jarayonning shu kunlarda ham davom qilayotgani ibratli faktidir.

Bu mavzu shu darajada keng va rang – barangki, uni bir maqola, hatto bir kitob doirasida ham to'la to'kis ochib berish imkonini yo'q. Bu masala kelajakda alohida tadqiqotlarda o'rganiladi va biz maqolamizda tilga olishga ulgurmagani mavzular kengroq doirada yoritiladi degan umiddamiz.

#### Adabiyotlar

- 1."O'zbek adabiy tanqidi. Antologiya. -Toshkent: 2011, 13-26-b.
2. Quromboyev K. Adabiy jarayon. Ijod mas'uliyati. Adabiy aloqalar. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. -T.: 2009
3. Bahodir Karim. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. -Toshkent: "Akademnashr", 2014.

#### РЕЗЮМЕ

Maqolada o'zbek qodiriyshunosligi haqida so'z yuritiladi, yozuvchi ijodining qardosh xalqlar adabiyotshunosligi, shuningdek, jahon adabiyotshunosligida o'rganilishi masalalari tahlil qilinadi.

#### РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается изучение творчества А.Кадыри в Узбекистане, анализ творчества писателя в литературе братских народов, а также в мировой литературной критике.

#### SUMMARY

The article deals with studying the creative works of A.Kadyri in Uzbekistan, analyzing the writer's creative work in the literature of the fraternal peoples as well as studying in the world literary criticism.

## ВОПРОСЫ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПЕРЕВОДА КАК СРЕДСТВА МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ

*Р.К.Рзаева – старший преподаватель*

*Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза*

**Таянч сўзлар:** бадий таржим, махорат, таржима назарияси ва амалиёти, бадий адабиёт, халқаро коммуникация воситаси, чет эл адабиёти, замонавий адабиёт, чет тилларига таржима, миллий адабиётимизнинг энг яхши намуналари, маданиятнинг хусусиятлари.

**Ключевые слова:** художественный перевод, мастерство, теория и практика перевода, художественная литература, средство межкультурной коммуникации, зарубежная литература, современная литература, перевод на иностранные языки, лучшие образцы национальной литературы, особенности культуры.

**Key words:** literary-artistic translation, skill, theory and practice of translation, the belles-lettres style, means of intercultural communication, foreign literature, modern literature, translation into foreign languages, the best samples of national literature, peculiarities of culture.

Конец XX - начало XXI века – переломное время в изучении взаимодействия языка и культуры: внимание лингвистов переместилось с внутренней устроенности языка на его функционирование. Изучение языка в действии обнаружило его нерасторжимую связь с культурой его носителей.

Представители одной культуры знакомятся с особенностями других культур из литературных произведений и других источников. Одним из таких источников, получивших широкое распространение в современном мире, являются переводы. Перевод – это сложное многогранное явление, который объединяет народы с разными культурами. Раскрывая своеобразие и многообразие культурных ценностей, обычаев и традиций, переводы способствуют взаимопониманию и взаимоважанию, обогащают культуру каждого народа, и вносят большой вклад в развитие языка и литературы.

В преподавании иностранных языков большое значение придается вопросам художественного перевода, в учебные планы вузов в течение многих лет включен предмет «Теория и практика перевода».

Вопросам перевода была посвящена первая международная конференция «Актуальные вопросы изучения и популяризации за рубежом узбекской классической и современной литературы», проходившая в Ташкенте в августе 2018 года. На конференции приняли участие

учёные, переводчики и издатели из 25 стран дальнего и ближнего зарубежья, среди которых были представители нескольких государств СНГ, Японии, Южной Кореи, США, Ирана, Индии, Египта, Франции, Германии, Сербии и Нидерландов.

Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев в своём выступлении отметил, что следуя принципу «Дружба литератур – дружба народов» сегодня в республике много внимания уделяется переводу и изданию на узбекском языке шедевров мировой классической и современной литературы. Он подчеркнул, что в стране сформировалась уникальная творческая школа художественного перевода, на узбекский язык переведены тысячи произведений, являющихся бесценным достоянием общечеловеческой культуры. Вместе с тем, было отмечено, что в этой сфере сейчас есть определённые проблемы [1:2].

Целью данной статьи является рассмотрение некоторых вопросов и задач, которые обсуждались на первой международной конференции по актуальным проблемам перевода, и краткий обзор работы, проводимой на кафедре английского языка и литературы пединститута по решению этих проблем, в особенности в области художественного перевода.

В современном переводоведении перевод чаще всего рассматривается как вид межкультурной коммуни-